

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI

RADJAPOVA LOLA NURADDINOVNA

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI IJTIMOY
HIMOYASINING TASHKILY-HUQUQIY JIHATLARINI
TAKOMILLASHTIRISH

12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Radjapova Lola Nuraddinovna

Ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish 3

Раджапова Лола Нураддиновна

Совершенствование организационно-правовых аспектов социальной защиты сотрудников органов внутренних дел.... 25

Radjapova Lola Nuraddinovna

Improvement of organizational and legal aspects of social protection of employees of internal affairs bodies 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

RADJAPOVA LOLA NURADDINOVNA

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI IJTIMOY
HIMOYASINING TASHKILY-HUQUQIY JIHLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

**12.00.02 – Konstitutsiyaviy huquq. Ma’muriy huquq.
Moliya va bojxona huquqi**

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Yu922 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz/kk/universitet>) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.


Ilmiy rahbar:	Qodirov Umidjon Abdimuratovich yuridik fanlar nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	Ziyodullayev Muzaffar Ziyadullayevich yuridik fanlar doktori, professor Daumenov Berdaq Aymuratovich yuridik fanlar nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish instituti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Yu.20.02 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 21-sentabr kuni soat 10 daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 742012, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko'chasi, 1).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 742012, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Nukus sh., akademik Ch. Abdirova ko'chasi, 1).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil 9-sentabr kuni tarqatildi.
(2024-yil 9-sentabr daqi 4-raqamli reestr bayonnomasi).


Y.D. Kutibaeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor


G.M. Berdimuratova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kengashi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa
doktori, dotsent

Z.A. Reymova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashga obyektiv zarurat sifatida qaraladi. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlashda davlat institutsional tizimlari orasida ichki ishlar organlari (politsiya)ning o'ri beqiyosdir. Shu sababli dunyo hamjamiyatida politsiya faoliyati, xususan, xodimlarning ijtimoiy himoyasi IPA (Xalqaro politsiya assotsiatsiyasi) kabi xalqaro tashkilotlar, shuningdek, mahalliy hukumatlar darajasidagi muhim masalalar hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda AQShda politsiya xodimlarining ijtimoiy himoyasi uchun 115 milliard dollar¹, Angliyada 25,3 milliard funt sterling² ajratilgan. Biroq, shunga qaramasdan xodimlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, politsiya xizmatining jozibadorligini yanada oshirishning yangicha yondashuvlariga zarurat yuzaga kelmoqda.

Jahonda politsiya faoliyati, jumladan xodimlarning ijtimoiy ta'minotining namunaviy modeli shakllanmaganligi tufayli politsiya xodimlari va ularning oila a'zolarining ijtimoiy muammolarini hal etish orqali xizmat faoliyati samaradorligini oshirish masalasi ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarb obyektiga aylangan. Bu borada, ayniqsa, tizimda korrupsiyaning oldini olish, maksimal darajada ish haqini oshirish, xizmat vazifasini bajarish chog'ida xodimning hayoti va sog'lig'iga, mol-mulkiga yetkazilgan zararni qoplash, ijtimoiy imtiyozlar orqali kompensatsiyalash, o'zi va oila a'zolarini uy-joy ta'minotiga investitsiya kiritish va kreditlashni joriy qilish bilan bog'liq muammolarning ilmiy asoslangan yechimlarini aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi³ doirasida qonun ustuvorligini ta'minlash maqsadida ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi adolatlilik bilan ko'rsatilishini, elektron navbat oshkora yuritilishini ta'minlash vazifalari qo'yildi. Tizimda amalga oshirilgan islohotlar natijasida ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish masalalarida yangi imkoniyatlar yaratildi. Shunday bo'lsa-da, respublika miqyosida birgina uy-joy ta'minoti bo'yicha aksariyat xodimlarning murojaatlari obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra qanoatlantirilmasdan qolmoqda. Shuningdek, aksariyat xodimlarning o'zlariga tegishli ijtimoiy himoya huquqlarini bilmasliklari va ulardan oqilona foydalana olmasliklari, shaxsiy tarkib orasida imtiyozlardan foydalanishda navbat bilan bog'liq muammolarning hali-hamon mavjudligi, mazkur muammolarni bartaraf etishda tizimni to'liq raqamlashtirish, xodimlarga beriladigan ijtimoiy kafolat turlarini kengaytirish va takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish zarurati yuqorilgicha qolmoqda.

¹ <https://www.vera.org> // Elektron manba: (murojaat vaqti: 15.05.2024).

² <https://www.statista.com> // Elektron manba: (murojaat vaqti: 15.05.2024).

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // Elektron manba: <https://lex.uz/docs/-5841063> (murojaat vaqti: 15.05.2024).

O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentabrdagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3413-son, 2022-yil 8-fevraldagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 118-son qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to‘g‘risida”gi 354-son qarori, shuningdek, Ichki ishlar vazirligining buyruqlarida belgilangan ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga doir ustuvor vazifalarni ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “I. Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda ijtimoiy himoya bilan bog‘liq masalalarning huquqiy-iqtisodiy jihatlari D.M.Abduraximov, D.Q.Axmedov, A.Inoyatov, Sh.A.Ismoilov, N.A.Kuldashev, M.D.Ziyadullayev, G.M.Murodova, G.Sattarova, Y.Tursunov, M.A.Usmanova, Sh.M.Gaziyev, D.R.Maxmudovlar tomonidan, tarixiy va sotsiologik jihatlari esa M.Axmedova, A.A.Yermetov, B.A.Matlyubov, Q.B.Qodirov, Y.S.Pulatov, B.Y.Tursunovlar tomonidan tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlari ijtimoiy himoyasining tashkiliy-huquqiy asoslari S.V.Bondar, Y.V.Bikovskaya, S.Vasilev, Y.Gavrilova, Y.V.Gorgola, D.S.Dresvyankin, A.Yemelyanov, A.Zaikin, S.M.Kruppo, A.V.Kudayev, A.Lemexov, Y.I.Migachev, R.N.Morodumov, A.Naboka, M.V.Palexin, L.Pchelinseva, V.D.Roik, A.G.Sergeyev, N.Serebryakova, M.V.Sidorova, A.N.Suxarenko, N.Tyutyunov, R.A.Shaxbazov, D.A.Shaporev, A.Chorshanbiyev, ijtimoiy ta‘minot muammolari V.Koryakin, ijtimoiy himoyaning nazariy asoslari N.Antipeva, A.Korovnikovlar tomonidan muayyan darajada o‘rganilgan.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy jihatlari ko‘proq xorijiy tadqiqotlarda o‘rganilganligi kuzatiladi. Shu jumladan, E.Gamboa, H.Haenel, B.Hill, H.Lafont, P.Meyer, R.Pichon, G.Vagner, C.Vardynski, P.Boguskiy, S.Korolov, S.Skurixinlarning asarlarida xos mavzular bo‘yicha ma‘lumotlar mavjud⁴.

Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy-huquqiy himoyalash va uni yanada takomillashtirish masalalari O‘zbekistonda asosan magistrlik dissertatsiyasi ishlari, ilmiy maqolalar darajasida cheklanilib, maxsus tadqiq etilmagan. Ushbu dissertatsiyani metodologik jihatdan boyitishda yuqoridagi olimlarning asarlaridan keng foydalanilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston

⁴ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasining 2022–2024-yillarga mo'ljallangan Ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishga doir tartib-qoidalarining shakllanishi va rivojlanishini retrospektiv tahlil qilish;

ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi tushunchasi, mohiyati va yuridik tavsifini ochib berish, uning huquqiy asoslarini ilmiy-nazariy tahlil qilish;

ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini tashkiliy-huquqiy shakl va turlarini tizimlashtirish orqali mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berish;

ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning bugungi holatini o'rganish asosida huquqni qo'llash amaliyotida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish;

ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasining tashkiliy-huquqiy mexanizmlariga doir ayrim xorijiy mamlakatlar tajribasining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish;

ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyektini ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining tashkiliy-huquqiy jihatlarini tartibga solish bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoya qilish sohasidagi muammolar, ushbu sohani tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va ularni qo'llash amaliyoti, ayrim xorijiy davlatlar tajribasi, sohaga doir ilmiy-nazariy qarashlar hamda metodologik-uslubiy yondashuvlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil, anketa so'rovi, empirik material va statistik ma'lumotlar tahlili, kuzatish, mantiqiylik usullaridan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

xizmatni o'tash davrida uy-joyga yoki yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolari (eri (xotini), farzandlari yoki qaramog'ida bo'lgan shaxslar)ga qo'shimcha yashash maydoniga bo'lgan huquq hisobga olinib, tashkil etiladigan xizmat uy-joylari fondi, shuningdek, ichki ishlar organlariga birlashtirilgan uy-joy fondidagi kvartiralar hisobidan yashash maydonining belgilangan ijtimoiy normalari doirasida xizmat uy-joylari berilishi lozimligi ilmiy asoslantirilgan;

ichki ishlar organlari xodimlariga turarjoyga ega bo'lish yoki yashash sharoitini yaxshilash uchun besh yildan oshmaydigan muddatga Ichki ishlar vazirligi budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining ming baravarigacha miqdorda uzoq muddatli foizsiz qarz berilishi zarurligi isbotlangan;

tergovchi va surishtiruvchilarning xizmat va ijrochilik intizomi, ularning ko'rsatkichlariga ko'ra har chorakda rag'batlantirishni muddatli depozitga qo'yishdan olingan foiz daromadlari hisobidan amalga oshirilishi zarurligi asoslantirilgan;

ichki ishlar organlari xodimlari uy-joylar taqsimoti qur'a tashlash orqali amalga oshirilishi, xonalar sonini belgilashda xodim va oila a'zolarining yashash maydoni bo'yicha qonunchilik hujjatlarida belgilangan ijtimoiy normalar inobatga olinishi, alohida hollardan tashqari imtiyoz va ustunliklar berilishiga yo'l qo'yilmasligi lozimligi isbotlangan;

ichki ishlar organlari xodimlariga yashash sharoitini yaxshilash uchun foizsiz qarz berilganida qarz olgan xodim ichki ishlar organlari xizmatidan salbiy asoslarga ko'ra hamda pensiya olish huquqini bermaydigan holda bo'shatilganda, shuningdek, qarz mablag'idan maqsadsiz foydalanilganligi aniqlanganda qarz shartnomasini bekor qilish yoki qarzni qaytarish muddati tugamasdan qarz mablag'ini undirib olish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining tashkiliy-institutsional hamda huquqiy asoslari vujudga kelishi va rivojlanishi retrospektiv tahlil qilindi va kelgusi istiqbollari prognoz qilindi;

“ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish” va “ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy ta'minoti” tushunchalariga mualliflik ta'riflari ishlab chiqildi, ijtimoiy himoyaning maqsadi, ahamiyati va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlari uchun ijtimoiy himoyaning o'rni asoslab berildi;

ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy asoslarini takomillashtirish, jumladan tizimda “e-ijtimoiy-himoya.iiv.uz” onlayn platformasining funksiyalarini kengaytirish, navbatning oshkora yuritilishini ta'minlash hamda inson omilini cheklash lozimligi taklif etildi;

IV, Prezident davlat xavfsizlik xizmati, FVV, Mudofaa vazirligi va Milliy gvardiyada ijtimoiy-huquqiy himoyalash choralari sezilarli darajada bir-biridan farq qilishini hisobga olib, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyalashning asosiy choralari maqbullashtirish maqsadida Xavfsizlik kengashi qoshida huquqni muhofaza qiluvchi organlar qonunchilik ekspert tadqiqotlari idoralararo guruhini tuzish taklif etildi;

ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid qonunchilikni yanada takomillashtirishga qaratilgan “O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijasini aks ettiruvchi xulosalar rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlarga, xorijiy va milliy qonunchilik hujjatlariga, ichki ishlar organlari xodimlari (458 nafar respondent ishtirokida) va 100 nafar rahbar kadrlar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik (anketa so'rovi, intervyu olish) tadqiqotlar, sohaga doir ikki yillik (2022–2023-yillar) emperik va statistik ma'lumotlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali asoslantirilgan bo'lib, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, yetakchi xorijiy hamda milliy nashrlarda e'lon qilingan, olingan natijalar esa, vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi xulosa va tavsiyalardan ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyasining yuridik tavsifini boyitishda, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid huquqlarini kafolatlashning nazariy asoslarini rivojlantirishda, yangi ilmiy-tadqiqotlarni olib borishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular natijasida shakllantirilgan taklif va tavsiyalardan ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoyasiga oid qonunchilik normalari hamda Ichki ishlar vazirligining ijtimoiy himoyaga oid buyruqlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ichki ishlar organlari ijtimoiy himoyasining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

xizmatni o'tash davrida uy-joyga yoki yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj xodimlarga xizmat uy-joylarining ajratilishiga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to'g'risida"gi 354-son qarorining 61-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 26-sentabrdagi 12/15-79-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklifning joriy etilishi uy-joyga yoki yashash sharoitlarini yaxshilashga muhtoj xodimlarga xizmat uy-joylari fondi, ichki ishlar organlariga birlashtirilgan uy-joy fondidagi kvartiralar hisobidan xizmat uy-joylari berilishiga doir amaliyotning takomillashuviga xizmat qilgan;

ichki ishlar organlari xodimlariga turarjoyga ega bo'lish yoki yashash sharoitini yaxshilash uchun besh yildan oshmaydigan muddatga foizsiz qarz berish bo'yicha taklifdan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 4-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari va Milliy gvardiyasining shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish tizimini tartibga solish to'g'risida" gi 354-son qarorining 96-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Axborot tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2023-yil 26-sentabrdagi 12/15-79-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning amaliyotga tatbiq etilishi ichki ishlar organlari xodimlarining uy-joy bilan ta'minlanish huquqi kafolatlanishiga hamda bu boradagi muammolarning bartaraf etilishiga xizmat qilgan;

tergovchi va surishtiruvchilarning xizmat va ijrochilik intizomi, ularning ijobiy faoliyat ko'rsatkichlariga ko'ra har chorakda rag'batlantirishning huquqiy mexanizmlarini yaratishga doir takliflardan O'zbekiston Respublikasi IIVning 2021-yil 5-avgustdagi 279-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari tergov bo'linmalarining vaqtincha tasarrufidagi bo'sh pul mablag'larini muddatli depozitga qo'yishdan olingan daromadlardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomning 3-bob, 7-band uchinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi IIVning 2023-yil 27-martdagi 18/2000-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi tergovchi va surishtiruvchilarni rag'batlantirish mexanizmlarining takomillashuviga xizmat qilgan hamda buning natijasida xodimlarning faoliyat samaradorligi oshishiga erishilgan;

ichki ishlar organlari xodimlariga uy-joylar taqsimotining shaffof tizimini yaratishga qaratilgan takliflardan O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 1-oktabrdagi 404-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomning 53-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yil 16-fevraldagi 2/391-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ichki ishlar organlari xodimlari uchun uy-joy taqsimotining ratsional tizimi yaratilishiga xizmat qilgan;

ichki ishlar organlari xodimlari bilan tuzilgan qarz shartnomasini bekor qilish asoslarini takomillashtirishga doir takliflardan O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2022-yil 1-oktabrdagi 404-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Ichki ishlar organlari shaxsiy tarkibi va ularning oila a‘zolarini ijtimoiy himoya qilish faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizomning 116-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi IIVning 2024-yil 16-fevraldagi 2/391-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ichki ishlar organlari xizmatidan salbiy asoslarga ko‘ra hamda pensiya olish huquqisiz bo‘shatilgan xodim bilan qarz shartnomasini bekor qilishning huquqiy mexanizmlari yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 2 ta xalqaro, 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 19 ta, jumladan dissertatsiyaning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 16 ta (shundan 1 tasi xorijda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotdan ko‘zlangan maqsad va bajarilgan vazifalar, dissertatsiyaning obyekti, predmeti belgilangan, tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi: ilmiy-nazariy tahlil”** deb nomlangan birinchi bobida ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi rivojlanishining retrospektiv tahlili amalga oshirilgan, shuningdek ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning nazariy-huquqiy asoslari tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tartib-qoidalarining shakllanishi va rivojlanishi”* ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining paydo bo‘lishi va shakllanishi, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi asoslarining rivojlanishi hamda o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganilgan.

Dissertatsiyada xodimlar ijtimoiy himoyasining shakllanishi va rivojlanishi quyidagi tarixiy davrlarga ajratilgan holda tahlil qilingan hamda o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflangan. Jumladan:

dastlabki davr ilk yozma manba “Avesto”ga tayanilgan holda tadqiq etilib, jamiyat to‘rt toifaga ajratilib, ulardan birini harbiylar tashkil etishini, aynan ichki ishlar organlariga o‘xshash tuzilma tilga olinmasada, ularning vazifalarini harbiylar bajarganliklari;

o‘rta asrlar va keyingi davrlar (VIII – XX asr boshlari) – bu davrlarda mamlakatimizga islom dini kirib kelgan bo‘lib, davlatchilikda shariat qoidalariga asosan ish yuritilgan hamda bu bosqichda qo‘shin ot-ulov, kiyim-kechak, oziq-ovqat, xizmat evaziga xazinadan yillik maosh, kunduzi va kechasi soqchilik qiluvchi soqchilarning maoshi boshqa harbiy askarlar singari ma‘lum qoidalar asosida belgilangan. Xususan, *G‘aznaviylar davrida* armiya qo‘shini askar va g‘ulomlardan iborat bo‘lganligi, g‘ulomlar xizmat evaziga xazinadan yillik maosh va oziq-ovqat mahsulotlarini olganligi, g‘ulomlar yaxshi xizmat uchun ozodlik olishlari, yer, mahsulot olishlari, katta mansablarga erishishlari mumkinligi, *qoraxoniylar* xoqonligida esa tunda, ya‘ni kunduzi va kechasi soqchilik qiluvchi soqchilar bo‘lganligi, soqchilarning maoshi boshqa harbiy askarlar singari ma‘lum qoidalar asosida belgilangan bo‘lib, uning o‘sishi yoki kamayishi mansab va lavozimning o‘zgarishi, ko‘rsatgan xizmatiga bog‘liq bo‘lgan.

Ushbu davrda Amir Temur tomonidan oddiy jangchilarni yaxshi so‘z, kiyim-kechak, oziq-ovqatini serob qilib, bahodirlar maoshi ikki otdan to‘rt otgacha tayinlanib, o‘nboshilar maoshi qo‘l ostidagi oddiy sipohiylardan o‘n barobar, yuzboshi maoshi o‘nboshiga qaraganda ikki barobar, mingboshilarniki esa yuzboshilarnikidan uch barobar ziyoda bo‘lgan, “nafaqa”ga ketgan sipohiyga hayotini ayamadan xizmat qilganligi uchun in‘om va moddiy ta‘minot berilgan.

Shuningdek, bu davrlarda o'zbek xonliklari davri ham bo'lib, har bir xonliklarda ichki ishlar bilan *mirshablar* shug'ullanganligi va ularning asosiy vazifalari huquq-tartibotni saqlash, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash bo'lib, ularning ta'minoti turli viloyat va tumanlar daromadi hisobidan kelib chiqib belgilanganligi, davlat tomonidan mirshabxona mulozimlarining vafot etgan oila a'zolarini dafn etishga moddiy yordam ko'rsatish borasida kafanlik (mato) berilganligi, yoshi ulug' bo'lgan harbiy xizmatdan ozod etilganlarga oyiga 3 rublgacha nafaqa tayinlanganligi;

Sobiq Ittifoq davri (1917-1991). Shuni alohida qayd etish joizki, urush davrida militsiya xodimlari yirtiq chopon va ko'pchiligi poshnasi bo'lmagan etik kiygan holda og'ir tabiiy sharoitlarda jang olib borganliklari, 1950-yildan so'ng militsiyani texnika bilan ta'minlash, transport muammosi hal etilib, militsiya xodimlari uchun yangi binolar qurilib topshirilganligi, Markaziy apparatda esa xizmatchilarning ehtiyojlari uchun bino hovlisida maxsus do'konlar ochilib, moddiy-texnik jihatdan yangilashga, xodimlar uchun iqtisodiy va ijtimoiy qulayliklar yaratilganligi, 1990-yillarda barcha sohalarda bosqichma-bosqich islohotlar o'tkazilgani kabi ichki ishlar idorasida ham islohotlar o'tkazilib, uning ikkinchi va uchinchi bosqichlarida ichki ishlar organlarining moddiy texnika bazasi va sohaviy xizmatlar bilan hamkorligi takomillashtirilganligi, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy-huquqiy himoyalashga e'tibor qaratilganligi tahlil qilingan (1988-yil 2-fevraldagi KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrlar Sovetining "Militsiya uchastka inspektorlari faoliyatini, ularning moddiy ta'minotini yaxshilash choralari haqida"gi va 1990-yil 31-oktabrda "Militsiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni asos bo'lib xizmat qilib kelgan);

1991-yildan 2016-yilgacha bo'lgan davr. Bu davrda oylik lavozim maoshlari hamda maxsus unvonlar bo'yicha maosh miqdorlari joriy etilgan, xususan, Vazirlar Mahkamasining 1991-yil may oyida "Ichki ishlar organlari shaxsiy sostavining pul ta'minotini oshirish haqida"gi qaroriga asosan ichki ishlar bo'limining boshlig'i oylik lavozim maoshi 320-350 so'm, uning o'rinbosari 300-330 so'm, katta tergovchi 250-280 so'm, tergovchi, operativ vakil, ekspert, inspektor 240-270 so'm, moddiy texnika baza yaxshilanib, xodimlarni moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashga alohida e'tibor qaratilib, uy-joy bilan ta'minlash yo'lga qo'yila boshlangan (Vazirlar Mahkamasining 1991-yil may oyidagi "Ichki ishlar organlari shaxsiy sostavining pul ta'minotini oshirish haqida"gi qarori va 2004-yil 4-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish va ijtimoiy himoyalashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari doirasida amalga oshirilgan);

xodimlarni ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy davri (2016-yil va undan keyingi davr). Mazkur davrda "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hamda xizmatni o'tashga oid qonunchilik takomillashuvi bilan xodimlar va ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash tadbirlari, uy-joy bilan ta'minlash maqsadida Ichki ishlar vazirligi bilan mahalliy hokimiyat organlarining muntazam hamkorligi yo'lga qo'yilib, tayyor holda uy-joylar topshirish, foizsiz uzoq muddatga qarz berish, bir martalik nafaqalar tayinlash hamda boshqa ijtimoiy himoya turlari takomillashtirilganligi, ayniqsa, ushbu davrda xodimlarni turarjoy bilan ta'minlash Ichki ishlar vazirligi bilan mahalliy hokimiyat organlarining muntazam hamkorligi yo'lga qo'yilganligi, bunday

hamkorlik natijasi o‘laroq birgina Toshkent shahar IIBBga kelib tushgan jami 1697 ta murojaatdan 8,36 foizi ijobiy qanoatlantirilgan bo‘lsa, 32,1 foizi rad etilganligi, yana 59,4 foiz murojaati ijroga, ya’ni navbatga qo‘yilganligi yoritib o‘tilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrdagi “Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3413-sonli hamda 2022-yil 8-fevraldagi “Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 118-sonli qarorlari ushbu davrdagi islohotlarning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qilib kelmoqda).

Dissertatsiyada hozirgi davrda ichki ishlar organlari xodimlarini qo‘llab-quvvatlashning standart davlat ijtimoiy ta‘minotidan voz kechmagan holda ijtimoiy himoyaning moslashuvchan usullariga ham ehtiyoj sezilib borayotganligi, 2020-yil voqealari – koronavirus pandemiyasi, favqulodda holatlar (Sardoba fojeasi), karantin davrida aholi ijtimoiy himoyasi bo‘yicha tezkorlik bilan kutilmagan choralarning ishlab chiqilishi milliy qonunchilik huquqiy bo‘shliqlarini – qonun-qoidalarning izolyatsiya sharoitiga moslab ishlab chiqilmaganligini, imtiyozlar ham real hayotga to‘liq mos emasligini karantin davri ko‘rsatib berganligi asoslantirilgan.

Birinchi bobning “*Ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasining nazariy-huquqiy asoslari tahlili*” deb nomlangan ikkinchi paragrafida ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasining mohiyati, yuridik tavsifi hamda faoliyatga doir qonun va qonunosti hujjatlari tahlil qilingan.

Tadqiqot ishida V.M.Anisimkov, D.Q.Axmedov, M.Bo‘riyeva, A.A.Nikonorov, S.D.Solovyova, A.V.Stremouxov, M.Usmanov, S.D.Poroshuk, A.V.Korovnikov, L.P.Xrapilinalarning “*ijtimoiy himoya*” hamda “*ijtimoiy ta‘minot*” tushunchalari haqidagi qarashlari tahlil etilib, ijtimoiy himoyaning ichki ishlar organlari tizimidagi o‘rni va ahamiyati ochib berilgan. Tahlillar natijasida ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi va ijtimoiy ta‘minotiga oid quyidagi tushunchalar ishlab chiqilgan:

ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish – bu ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a‘zolarini, pensionerlar hamda faxriylarning huquq va manfaatlarini kafolatlash, ular uchun munosib turmush sharoitlarini ta‘minlash, moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy-psixologik tomondan qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshiriladigan barcha tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy chora-tadbirlar kompleks majmui;

ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy ta‘minoti – bu davlat tomonidan o‘z budjet mablag‘lari hisobidan ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a‘zolarini, qonunchilikda belgilangan tartibda pul va nafaqa ta‘minoti bilan ta‘minlash, ijtimoiy yordam va imtiyozlar berish orqali qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Dissertant ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tadqiq qilib, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoya qilish kadrlar siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri, shu kasbning jozibadorligi deb hisoblanishi kerakligini, tizimda ijtimoiy himoya ham muhim motivatsion omil ekanligini va u buni tadqiqotdagi ijtimoiy so‘rovlar orqali ham asoslantirgan. Xususan, “*Ichki ishlar organlarida ijtimoiy himoya qanchalik muhim?*” degan savolga ishtirokchi ichki ishlar organlari xodimlarining aksariyati (92 foiz) “*Ijtimoiy himoya bo‘lishi zarur, shunda xizmatda yaxshi natija bo‘ladi*”, deya javob berishgan.

Dissertatsiyada ichki ishlar organlari samarali faoliyat olib borishi uchun bir qator me'yoriy-huquqiy hujjatlar imzolanganligi, 2016-yil 16-sentabrda O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilinishining ahamiyati mazkur qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rni bilan o'lchanishini, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishi bilan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, lekin asosiy islohotlarga 2017-yil 29-noyabrdagi "Ichki ishlar organlari kadrlari bilan ishlash va ularning xizmatini tashkil etish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3413-son qarori muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qilganligi ta'kidlanib, tahlil qilingan.

Shuningdek, tadqiqotchi davlat rahbari tomonidan qabul qilingan Farmon va qarorlar hamda idoraviy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda quyidagi uch holat bo'lsa ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish va uni tartibga solishni to'laqonli amalga oshirish mumkinligini ta'kidlab o'tgan: **birinchidan**, qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar adolatga, inson huquqi va manfaatlariga asoslangan bo'lishi shartligida, **ikkinchidan**, Konstitutsiya, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar, nodavlat tashkilotlar va fuqarolar tomonidan aniq bajarilishi zarurligi, **uchinchidan**, barcha normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya va qonunlarga mos bo'lishi – qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy mexanizmlarini tashkil etilishini.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimining zamonaviy holati**" tahliliga bag'ishlanib, unda ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining turlari, kafolatlari, ijtimoiy himoyani ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan bugungi kundagi muammo va yechimlar to'g'risida so'z yuritilgan.

Mazkur bobning birinchi paragrafi "*Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishning tashkiliy-huquqiy shakllari va turlari*" deya nomlangan bo'lib, tadqiqotchi unda ichki ishlar organlari xodimlari ijtimoiy himoyasining o'ziga xos xususiyatlari, ijtimoiy himoyaning turlaridan kelib chiqib, har birining zaruriyatini alohida tahlil qilgan.

Dissertant tomonidan D.Q.Axmedov, M.A.Usmanova, A.Inoyatov, Y.Tursunov, G.Sattarova, D.Atajanova, Sh.M.Gaziyev singari olimlar ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik hujjatlarida ta'minot har xil shakllarda, xususan, pensiyalar, nafaqalar, bir martalik moddiy yordamlar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, muayyan imtiyozlar va yengilliklar ko'rinishida amalga oshirilishini, qaysi shaklda amalga oshirilishi masalasi esa aniq shart-sharoitlar hisobga olingani holda qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilishini qayd etganliklari tahlil qilinib, ijtimoiy ta'minot yetarli bo'lishi va zarur miqdorda amalga oshirilishida ekanligi ifodalaniib, tashkiliy-huquqiy shakllari, turlari mavjudligi quyidagicha tadqiq qilingan: ijtimoiy sug'urta (hayot, sog'liq, mol-mulkni muhofazalash); ijtimoiy ta'minot (pul, moddiy yordam, pensiya, nafaqa, oziq-ovqat, kiyim-kechak va pul ta'minoti); ijtimoiy imtiyoz va kompensatsiyalar (uy-joy, ta'lim, soliq, transport, aloqa, ipoteka va boshqa maishiy sohalar); ijtimoiy xizmat (tibbiy, farmatsevtik xizmat, sanatoriya-kurort, ijtimoiy rehabilitatsiya).

Muallifning fikricha “*ijtimoiy ta’minot*”, “*ijtimoiy himoya*” masalalari bitta huquq sohasi doirasida hal etiladigan masala emasligi, bu boradagi munosabatlar konstitutsiyaviy huquq, mehnat huquqi, fuqarolik huquqi, ma’muriy huquq, ijtimoiy ta’minot huquqi kabi kompleks huquq tarmoqlari (huquqlararo) bilan tartibga solinuvchi munosabatlardan iboratligini, tabiiyki, ushbu kategoriyalarning huquqiy mazmunini ochib berish hamda mohiyatini anglash uchun bir qator huquq tarmoqlariga doir manbalarni o‘rganish talab etiladi.

Tadqiqotchi ichki ishlar organlari xodimlarining davlat ijtimoiy ta’minot tizimida ustuvorlik Ichki ishlar vazirligiga berilishini, chunki ijtimoiy ta’minotning asosiy turlari mazkur vazirlik orqali yetkazilishini, ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish ular tomondan xizmat faoliyatlarini samarali bajarishlariga xizmat qilishini, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasi mamlakatimizdagi fuqarolarni ijtimoiy himoya qilishdan farq qilmasligini tahlil qilgan.

Dissertant O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-sentabrdagi “Ichki ishlar organlarining tergov bo‘linmalari xodimlari tomonidan jinoyatlarni tergov qilish hamda fosh etish samaradorligini yanada oshirish to‘g‘risida”gi 727-sonli qaroriga muvofiq, tergov (surishtiruv) bo‘linmalari xodimlariga qo‘shimcha ustamalar to‘lanadigan maxsus malaka darajasini tartibi belgilanganligi, shuningdek, Tezkor-qidiruv, Huquqbuzarliklar profilaktikasi va Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati xodimlarida ham oylik ish haqi ustamalarini berish yo‘lga qo‘yilganligini, ayrim xizmatlarda esa bu imtiyoz mavjud emasligini tahlil qilgan. Uning fikricha, Yaponiya tajribasiga ko‘ra, politsiya xodimining pul ta’minoti fuqaroga mehnat munosabatlarida to‘lanadigan mehnatga haq to‘lash miqdoridan *13 foizga* yuqoriligi, mazkur jihatdan havas qilgulik darajada foydalanish mumkinligini tahlil qilgan holda ichki ishlar organlari soha xizmatlaridagi xodimlarning ish ko‘rsatkichlari bo‘yicha xizmat turidan kelib chiqib, qo‘shimcha sohaviy ustama pulini joriy qilish lozimligini asoslantirgan.

Dissertant tomonidan dunyo davlatlarida harbiy xizmatchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning noan’anaviy mexanizmlari yanada keng rivojlanayotganini qayd etib, ssuda va foizsiz qarz ko‘rinishidagi ijtimoiy kafolat turlari rivojlanayotganligini, bu tizim harbiy xizmatchilarning turarjoy hamda avtotransport kreditlarini qoplashda qulay imtiyozlar sifatida baholanib kelinayotganligini, AQSH Milliy gvardiyasi tajribasiga ko‘ra, uy-joy ta’minoti bo‘yicha ko‘plab dasturlarda ssuda mexanizmlari mavjudligini, Faxriylar ishlari bo‘yicha departament (VA) tashabbusi asosida qiymati *484,3 ming dollargacha* bo‘lgan turarjoyning dastlabki badal puli foizsiz qarz ko‘rinishida to‘lanishi mumkin ekanligi, bunday tajriba ichki ishlar organlarida yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa-da, avvalo, ushbu maqsadda budget tashkilotining jamg‘armalari mablag‘larini yetarlicha shakllantirib olish muhimligi, qo‘shimcha xarajatlarni har doim davlat budgetiga taqab olib borish ijobiy natijalar bermasligini tahlil qilgan.

Dissertant tadqiqot ishida hozirda O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarida ham ayol xodimalarning ulushi ortib borayotganligi, bu jami shaxsiy tarkibning *8,56 foizini* tashkil qilishini, shunga qaramay amaldagi ichki ishlar organlari qonunchiligida ayollar tomonidan xizmat ko‘rsatishning o‘ziga xos xususiyatlari yetarli darajada hisobga olinmaganligi, normativ-huquqiy hujjatlarda erkaklar va ayollarning teng huquqli ekanliklari nazarda tutilib, istisno tariqasida ayol xodimalarning onalik majburiyatlari inobatga olinmaganligini tadqiq qilgan.

D.S.Dresvyankinning ayol xodimalarni: 1) ayol oiladagi mas'ul shaxs; 2) ayol – ona; 3) ayol – xodima, deya kategoriyalarga bo'lish fikriga qo'shilgan holda ularning ijtimoiy himoyasi muhim va zarur ekanligini ifodalab, ichki ishlar organlarida xizmat qiluvchi ayol xodimalarga tug'ruqdan so'ng farzandi ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligining 2002-yil 18-fevraldagi "Ishlovchi onalarga bola ikki yoshga to'lgunga qadar bola parvarishi bo'yicha oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi 35-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6277-son farmoniga ko'ra nafaqa to'lanmasligini tahlil qilib, qonunchilikka tavsiyaviy ahamiyatga ega taklif ishlab chiqqan.

Bundan tashqari, muallif tomonidan ijtimoiy himoyaning muhim turlaridan biri bo'lgan yigirma yil va undan ko'p kalendar yil xizmat qilib, yil davomida ichki ishlar organlarining tibbiy muassasalarida statsionar sharoitda davolanmagan xodimlarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining to'rt baravarida bir martalik pul kompensatsiyasi to'lab berish yo'lga qo'yilganligi, 2023-yilda 5,2 foiz xodimga kompensatsiya pullari to'lab berilganligi, yana eng muhim ijtimoiy kafolatlardan – jinoyat protsessida reabilitatsiya etilgan ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatga oid pensiya olish, uy-joydan foydalanish va boshqa shaxsiy hamda mulkiy huquqlarini tiklash va ularga yetkazilgan mulkiy ziyonni qoplash, ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilganligi, yillar davomida amalda deyarli qo'llanilmagan tartib-taomillar mustahkamlanganligi tadqiq qilingan.

Dissertant milliy qonunchiligimizda ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoyalashning turlari va shakllari yanada kengayishi ijtimoiy soha islohotlarining asosiy natijalaridan biri bo'lishini tahlil qilgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafi "*Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha huquqiy amaliyot natijalari tahlili*"ga bag'ishlangan bo'lib, unda ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasining bugungi holati, mavjud muammolar va ularning yechimlari yoritilgan.

Tadqiqotchi amaldagi qonunchilikka asosan 2019–2022-yillarda ko'p kvartirali uylarni hamda uylarni "tayyor holda topshirish" shartlarida bosqichma-bosqich qurish uchun O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo'linmalarining foydalanilmaydigan yer uchastkalari, bino va obyektlaridan foydalanish joriy qilinganligi, shunday bo'lsa-da, 2023-yil davomida respublika bo'yicha jami 9820 ta murojaatdan 2,6 foiz xodimlarga uy-joylar "tayyor holda" topshirilganligi (*Markaziy apparat 29,9 foiz, JIED 33 foiz, Toshkent shahar IIBB 35,7 foiz, Qorovul qo'shinlari qo'mondonligiga 0,38 foiz to'g'ri keladi*) tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasiga oid qonun hujjatlariga xodim tomonidan aynan Ichki ishlar vazirligi yoxud uning quyi bo'g'in boshqarmalari tomonidan uy-joy qurilishiga navbatga turib, navbat kutmasdan, xodim o'zi xohlagan davlat bankiga murojaat qilib, imtiyozli kredit asosida uy-joy sotib olish huquqini beruvchi kafolat turini kiritish zarur.

Tadqiqotchi ichki ishlar organlari xodimlari o'rtacha og'ir jarohatlanganda sug'urta pulini to'lash nazarda tutilmaganligini, asosan xodimlar o'rtasida o'rtacha og'ir tan jarohati olish holatlari ko'proq uchrab turishini, xodimlarning aksariyati sug'urtadan boxabar bo'lishsa-da, undan foydalanish samaradorligi juda pastligini ta'kidlagan. Shuningdek, AQSh sug'urta tizimida harbiy xizmatchilar kabi politsiya xodimlarining oila a'zolari ham sug'urtalanishlarini, sug'urta pensiyaga chiqquncha (60 yosh) kafolatlanib, *400 ming dollargacha* to'lov berilishi, sug'urta pullarining miqdori eng kam oylik ish haqi yoki bazaviy hisoblash miqdoriga emas, balki xodimning lavozim maoshi va unvon pulidan kelib chiqib karralab yoki aniq summalarda hisob-kitob qilinishi, Rossiyada esa vafot etgan politsiya xodimining oilasiga *3 mln.rubl* berilsa, Ozarbayjonda *11 ming manat* belgilanganligi, Qirg'iziston qonunchiligi bo'yicha esa pul ta'minoti okladining *200 baravari miqdorida* to'lab berilishi, hatto, moliyalashtirish kechiktirilgan har bir kun uchun *1%* penya ham o'rnatilganligi qiyosiy tahlil qilinib, tegishli takliflar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, dissertatsiyada ichki ishlar organlari xodimlariga ko'rsatiladigan tibbiy xizmat tadqiq etilgan bo'lib, xususiy tibbiyot muassasalari bilan qiyoslanganda tibbiy xizmat darajasi pastligi, xodimlar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomalarda ham *37 foiz* xodim tibbiy xizmatni "*qoniqarsiz*" baholaganligini, tibbiy ta'minotning sifatini oshirish uchun xususiy tibbiyot muassasalari bilan shartnomalar tuzish orqali raqobat o'rnatish lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqot ishida izlanuvchi qonun va qonunosti hujjatlarida xodimlarning ijtimoiy himoyasiga oid huquqlari keltirilganligini, biroq xodimlarning murojaatlari ortiqcha qog'ozbozlik yuzasidan rad etilish holatlari, ayrim hududlarda rahbarlar tomonidan ish vaqtining to'g'ri tashkil qilinmasligi, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilning 11 oyi davomida ichki ishlar organlarida xizmat olib borayotgan yosh xodimlardan jami *1,24 foizi* ichki ishlar organlaridan bo'shatilganligi, shundan *19,1 foizi* xizmat intizomini buzganligi uchun, *1,85 foizi* salbiy holatlar yuzasidan bo'shatilgan bo'lsa, *79 foizi* o'z shaxsiy iltimosiga ko'ra bo'shatilganligi tahlil qilingan. Shuningdek, navbatchilikdan so'ng dam olish va mehnat ta'tilining o'z vaqtida berilmasligi asosiy muammolardan biri ekanligi mutaxassislarining fikrlari bilan asoslantirilgan, xususan, ichki ishlar organlari xodimlarining o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomadagi "*Mehnat ta'tilini har yili o'z vaqtida to'liq olasizmi?*" degan savolga respondentlarning *21 foizi* "Ha, lekin to'liq berilmaydi", *48 foizi* "Yo'q, o'z vaqtida berilmaydi", *10 foizi* "Umuman berilmaydi", deya javob berishgan bo'lsa, qolgan *21 foiz* xodimlar o'z vaqtida mehnat ta'tiliga chiqishlarini ma'lum qilgan. Ishda mehnat ta'tilining o'z vaqtida va to'liq berilmasligining oqibatlari tadqiq qilinib, mehnat ta'tilini to'liq olinishini ta'minlash yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning "**Ichki ishlar organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilishni takomillashtirish istiqbollari**" deb nomlangan uchinchi bobida xorijiy davlatlarning ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarining ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq qonun, qonun osti normativ hujjatlari qiyosiy-huquqiy tahlil qilingan hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini takomillashtirish istiqbollari ishlab chiqilgan.

Ushbu bobning birinchi paragrafi “*Ayrim xorijiy davlatlarda ichki ishlar organlari (politsiya) xodimlarini ijtimoiy himoya qilish borasidagi ilg‘or tajribalar tahlili*”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda muallif tomonidan bir qator rivojlangan (Rossiya Federatsiyasi, Qozog‘iston Respublikasi, Belarus Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Armaniston Respublikasi, Ukraina Respublikasi, AQSh, Germaniya Federativ Respublikasi, Yaponiya, Avstriya Respublikasi, Buyuk Britaniya Qirolligi) davlatlarning qonunchiligi va amaliyoti o‘rganilgan holda milliy tizimni takomillashtirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

Dissertatsiyada kishi boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsuloti hamda iqtisodiy salohiyatini inobatga olganda G‘arb davlatlari politsiya organlari ijtimoiy himoyasi sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etilgan holda MDH davlatlarining qonunchiligi bizning qonunchiligimizga yaqinligi hamda ushbu davlatlarning aksariyati aholisi bir-biriga yaqin mentalitetga egaligi nuqtai-nazaridan ayrim MDH davlatlarining ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasini tashkil etish borasidagi quyidagi ijobiy tajribalari qiyosiy tahlil qilingan.

Rossiya Federatsiyasining banklarida “harbiy” hamda “politsiya” ipotekalarining mavjudligi, xodimlarga foiz stavkalari imtiyozli belgilanganligi, kredit muddatini xodimning o‘zi belgilashi mumkinligi, ushbu imtiyoz O‘zbekiston Respublikasida tatbiq qilinishi ichki ishlar organlari xodimlarining ijtimoiy himoyasidagi imtiyozlarining kengayishini, budjetdan tashqari mablag‘ ajratilishini kutmasdan imtiyozli ipoteka krediti olishi, tadqiqot natijasida o‘tkazilgan so‘rovnomalarda ham “*Uy-joy bilan ta‘minlashda qaysi choralar afzalroq deb o‘ylaysiz?*” degan so‘rovga ishtirokchi ichki ishlar organlari xodimlarining 25 foizi “Kreditga tayyor kvartira olish”, 71 foizi “Imtiyoz berilsa xohlagan davlat banki orqali navbatsiz kreditga uy olish”, deya javob berishganligini ta‘kidlagan.

